Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	563
Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi	
Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INTEGRATIV MASHQLAR ORQALI TA'LIM BERISHNING AHAMIYATI

Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida integrativ mashqlardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida fanlararo integratsiyaga asoslangan mashqlarning o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi, mantiqiy tafakkuri, ijodiy fikrlashi hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tajriba va nazorat guruhlarida ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari integrativ yondashuv asosidagi mashqlarning o'quvchilar tomonidan ona tili fanini o'zlashtirish darajasini sezilarli ravishda oshirishini ko'rsatgan. Tadqiqot davomida integrativ mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan va uning amaliy samaradorligi statistik tahlillar asosida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: integrativ mashqlar, fanlararo integratsiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, metodik yondashuv, innovatsion ta'lim, lingvistik kompetensiya, kommunikativ ko'nikmalar.

Abstract: This article explores the pedagogical and methodological foundations of using integrative exercises in native language lessons at the primary education level. The study analyzes the role of interdisciplinary integration-based exercises in developing students' linguistic competence, logical reasoning, creative thinking, and communicative skills. The results of a pedagogical experiment conducted with experimental and control groups demonstrated that exercises based on an integrative approach significantly improve students' achievement in mastering their native language. During the research process, a comprehensive set of integrative exercises was developed, and its practical effectiveness was scientifically validated through statistical analysis.

Key words: integrative exercises, interdisciplinary integration, primary education, pedagogical technology, methodological approach, innovative education, linguistic competence, communicative skills.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические и методические основы использования интегративных упражнений на уроках родного языка в начальных классах. В ходе исследования проанализировано значение упражнений, основанных на междисциплинарной интеграции, для развития лингвистической компетентности, логического и творческого мышления, а также коммуникативных навыков учащихся. Результаты педагогического эксперимента, проведенного с участием экспериментальной и контрольной групп, показали, что упражнения, основанные на интегративном подходе, существенно повышают уровень усвоения учащимися учебного материала по родному языку. В рамках исследования был разработан комплекс интегративных упражнений, практическая эффективность которого была научно обоснована с помощью методов статистического анализа.

Ключевые слова: интегративные упражнения, междисциплинарная интеграция, начальное образование, педагогическая технология, методический подход, инновационное образование, лингвистическая компетентность, коммуникативные навыки.

KIRISH

Zamonaviy pedagogika sohasida integrativ mashqlar asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Fanlararo yondashuv tamoyiliga asoslangan mashq va topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma hamda kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. H. Jacobs integratsiyani “markaziy mavzu yoki muammoni o'rganish jarayonida turli fanlarga oid metodologiya va til birliklarini ongli ravishda birlashtiruvchi ta'lim dasturi” sifatida ta'rifiyladi. Mazkur yondashuv ta'lim mazmunining yaxlitligini ta'minlab, fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi.

Integratsiya jarayoni o'quvchilarda bilimlarni tizimli ravishda egallash, voqea va hodisalarni kompleks idrok etish hamda fanlararo bog'liqlikni anglash imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida inte-



grativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy fikrlashi va keng dunyoqarashini shakllantirishda samarali omil hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ham ta'limni integratsiyalashgan shaklda tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Davlatova integrativ-innovatsion metodlardan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali yo'llarini yoritib bergan. Shu bois boshlang'ich sinf pedagogikasida integrativ mashqlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Integratsiya tamoyiliga asoslangan metod va usullar ona tili darslarida til bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatish imkonini beradi. Jumladan, pizza-testlar, pizza-matnlar hamda boshqa interaktiv mashqlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, dars mazmunining hayotiylik darajasini oshiradi. Bunday mashqlar orqali o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Tadqiqotlar integratsiyalashgan darslar bolalarda voqelikni yaxlit holda anglash qobiliyatini shakllantirishini ko'rsatadi. Shuningdek, fanlararo mazmunga asoslangan topshiriqlar, jumladan, matnli mashqlar, loyiha ishlari va tadqiqot topshiriqlari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish olib borish hamda tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ mashqlar til va madaniyatga oid bilimlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarni global tafakkurga tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Filologik metodika nuqtai nazaridan qaralganda, integrativ mashqlar ona tili ta'limida til ko'nikmalarini real kommunikativ vaziyatlarda mustahkamlash, dars mazmunini boyitish hamda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, fanlararo integratsiyaga asoslangan mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining uzviy bilim olishini ta'minlash, ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularni keng dunyoqarashli shaxs sifatida tarbiyalashda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu jihatdan integrativ mashqlar ona tili o'qitish metodikasining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim jarayonini integratsiyalash masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari, uning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda metodik asoslari yoritib berilgan.

Jumladan, Davlatova O. D. boshlang'ich ta'limda integrativ-innovatsion metodlarning afzalliklarini tahlil qilib, ushbu metodlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mustaqil mushohada yuritishi va keng dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi ^[1]. Tadqiqotda integratsiya tamoyiliga asoslangan mashqlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Umarova Sh. M. esa ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish jarayonida milliy g'ururni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi ^[2]. Muallif integrativ topshiriqlar, xususan, matnli vazifalar va loyiha ishlari o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqiy faoliyatini faollashtirish hamda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi ^[5-7].

Integratsion yondashuvga oid boshqa ilmiy manbalarda ham mazkur metodikaning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, Hamidova D. va Abdullayev S. integratsiyalashgan darslarni til ta'limi mazmunini boyituvchi hamda fanlararo aloqalarni mustahkamlovchi pedagogik vosita sifatida baholaydilar ^[3]. Ularning fikricha, bunday yondashuv o'quvchilarda bilimlarni kompleks idrok etish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

So'nggi tadqiqotlarda CLIL konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar ham integrativ ta'limning samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur konsepsiya mazmun va tilni uyg'un holda o'qitishga asoslanib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar Saidova D. va Qodirov B. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda umumta'lim fanlariga oid topshiriqlarni ona tili darslarida qo'llash tajribalari tahlil qilinib, integrativ mashqlar dasturini ishlab chiqishning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan ^[4]. Tadqiqotchilar fanlararo topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarni uzviy bog'liq holda o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar ^[8-10].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan metodik tavsiyalarda ham fanlararo yondashuvni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgan. Mazkur hujjatlarda integrativ mashqlarni dars jarayoniga izchil joriy etish o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik manbalarda integrativ mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni kompleks ravishda o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi samarali metod sifatida e'tirof etilgan. Ushbu yondashuv orqali ona tili, adabiyot, tabiiy fanlar va boshqa o'quv predmetlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanadi. Shu asosda integrativ mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etishga yo'naltirilgan metodologiyani ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot empirik aralash metod asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil uyg'un holda olib borilib, integrativ mashqlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasida solishtirma pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajriba guruhida integrativ mashqlar asosida darslar tashkil etilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanildi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Toshkent shahri umumta'lim maktablarining 1-4-sinf o'quvchilari tanlab olindi. Tadqiqotda jami 60 nafarga yaqin o'quvchi ishtirok etdi. Har bir sinf bosqichidan o'rtacha 15 nafardan o'quvchi jalb qilindi. Tajriba va nazorat guruhlarini tasodifiy tanlov asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchilarning ota-onalari hamda maktab ma'muriyatidan yozma rozilik olinib, pedagogik etika talablariga to'liq rioya qilindi.

Tadqiqot uchun maxsus integrativ mashqlar to'plami ishlab chiqildi. Ushbu to'plamga ona tili faniga oid matnlar asosida tuzilgan mantiqiy savollar, ijodiy topshiriqlar hamda boshqa fanlar bilan bog'liq mashqlar kiritildi. Shuningdek, tadqiqot davomida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida dastlabki va yakuniy testlar, matnni tushunish hamda insho yozishga oid topshiriqlar, shuningdek, kuzatuv varaqalari tayyorlandi. O'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyati va o'quvchilarning darsdagi ishtiroki muntazam ravishda kuzatib borildi.

Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki pilot bosqichida ishlab chiqilgan integrativ mashqlar kichik guruhda sinov tariqasida qo'llanildi. Sinov natijalari asosida mashqlarning mazmuni, murakkablik darajasi va metodik jihatlari qayta ko'rib chiqilib, o'quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlariga moslashtirildi.

Asosiy bosqichda esa ikki oy davomida haftasiga bir marotaba tajriba sinfida integrativ mashqlar asosida dars mashg'ulotlari tashkil etildi. Nazorat sinfida an'anaviy o'qitish metodlari saqlab qolindi. Har bir mashg'ulotdan so'ng o'qituvchi tomonidan dars jarayoni tahlil qilinib, o'quvchilarning faoliyati, duch kelgan qiyinchiliklari va erishilgan natijalari qayd etib borildi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilarga tadqiqot boshlanishidan oldin hamda yakunida yozma test topshiriqlari berildi. O'quvchilarning yozma ishlari, kuzatuv natijalari hamda sinfdagi faollik ko'rsatkichlari muntazam ravishda yig'ildi va tizimlashtirildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi. Sifat tahlilida o'quvchilarning imlo xatolari, fikrni bayon qilish usuli, mantiqiy tafakkuri va ijodiy yondashuvi o'rganildi. Miqdoriy tahlilda esa deskriptiv statistik usullar, jumladan, foiz ko'rsatkichlari va o'rtacha qiymatlar asosida natijalar qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro taqqoslandi. O'quvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari o'rtasidagi o'zgarishlar alohida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida etik me'yorlarga qat'iy amal qilindi. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi hamda barcha pedagogik faoliyat davlat ta'lim standartlari va axloqiy me'yorlar asosida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasida o'tkazilgan dastlabki test natijalari deyarli bir xil ko'rsatkichlarni qayd etdi. Tadqiqotda Toshkent shahri umumta'lim maktablarining 1-4-sinf o'quvchilaridan iborat jami 60 nafar respondent ishtirok etdi. Har bir guruhda o'rtacha 30 nafardan o'quvchi qatnashdi. Dastlabki baholash natijalariga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha ball ko'rsatkichi 64 ni, nazorat guruhiniki esa 65 ni tashkil etdi. Bu holat ikki guruhning boshlang'ich bilim darajasi o'zaro yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot yakunida o'tkazilgan post-test natijalari esa sezilarli farqni namoyon etdi. Tajriba guruhida o'rtacha ball 64 dan 80 ga ko'tarilib, o'sish darajasi 25 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa o'rtacha ko'rsatkich 65 dan 70 ga yetib, o'sish darajasi 7,7 foiz bilan cheklanganligi kuzatildi. Mazkur natijalar integrativ mashqlarning ona tili ta'limi samaradorligini oshirishdagi muhim pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Statistik tahlilda deskriptiv statistika hamda juft tanlanmalar uchun t-test usulidan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi dastlabki va yakuniy natijalar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi natijalarda esa sezilarli statistik farq kuzatilmadi. Bu esa integrativ mashqlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ona tili kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Tajriba guruhi o'quvchilarida matnni tushunish, fikrni mantiqiy ifodalash, yozma nutqni shakllantirish va ijodiy yondashuv ko'nikmalari sezilarli ravishda rivojlandi. O'quvchilar mavzuni yaxlit holda idrok etish, matn tuzish hamda o'z fikrini erkin bayon etishda yuqori natijalarni namoyish etdilar. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy o'zgarish kuzatilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar an'anaviy ta'lim metodlarining tabiiy natijasi sifatida baholandi.



Tadqiqot davomida barcha etik me'yorlarga amal qilindi. Ishtirokchilarning ota-onalaridan yozma rozilik olinib, olingan ma'lumotlar anonim tarzda qayta ishlanib, tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari integrativ mashqlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi natijalarining sezilarli darajada oshgani integrativ yondashuvning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi. O'quvchilar nafaqat grammatik bilimlarni, balki matn bilan ishlash, mantiqiy tafakkur yuritish hamda fikrni izchil bayon etish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirdilar.

Mazkur natijalar Davlatova hamda Umarova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Ularning ilmiy qarashlarida integrativ ta'lim o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishi, til va tafakkur uyg'unligini ta'minlashi qayd etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ham integrativ mashqlarning o'quvchilarni mavzuni kompleks idrok etishga hamda matn asosida mustaqil fikr bildirishga yo'naltirishini tasdiqlaydi.

Filologik metodika nuqtai nazaridan integrativ yondashuv ona tili va adabiyot fanlari mazmunini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi, ijodiy tafakkuri hamda kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi^[11]. Shu bilan birga, bunday metodika ta'lim mazmunining hayotiylikni oshirib, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, tadqiqot ishtirokchilari sonining cheklanganligi hamda tajriba muddatining qisqaligi natijalarni umumlashtirish imkoniyatini ma'lum darajada chegaralaydi^[12]. Shu sababli kelgusida turli hududlardagi maktablarda uzoq muddatli pedagogik tajribalar tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, integrativ metodikaning boshqa yosh guruhleri va turli fanlardagi samaradorligini ham tadqiq etish zarur.

Kelajakdagi ilmiy izlanishlarda og'zaki nutq, ijodiy yozuv, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni baholashga yo'naltirilgan qo'shimcha diagnostik vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa tadqiqot natijalarining yanada aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari integrativ mashqlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida o'rtacha ball ko'rsatkichining 64 dan 80 ga ko'tarilgani integrativ yondashuvning pedagogik ahamiyatini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Nazorat guruhidagi natijalar esa an'anaviy metodlarning imkoniyatlari nisbatan cheklanganligini ko'rsatdi.

Integrativ yondashuv ona tili va adabiyot fanlarida mavzularni boshqa fanlar bilan uyg'un holda o'qitish orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari, ijodiy fikrlashi hamda mustaqil mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois ta'lim dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda mazmunan boy, interfaol hamda fanlararo xarakterdagi topshiriqlarga keng o'rin berish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Dars jarayoniga fanlararo integrativ mashqlarni muntazam ravishda kiritish.
2. O'qituvchilar uchun integrativ metodika va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha seminar hamda treninglar tashkil etish.
3. Ta'lim dasturlarida ijodiy va matnli topshiriqlar ulushini oshirish.
4. Ona tili darslarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan interfaol mashqlardan samarali foydalanish.
5. O'quvchilarning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik materiallar ko'lamini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ro'yxati:

1. Davlatova O.D. Boshlang'ich ta'limda integrativ innovatsion metodlardan foydalanish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 156 b.
2. Umarova Sh.M. Ona tili ta'limida integrativ yondashuv asosida milliy g'ururni shakllantirish. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. - 184 b.
3. Hamidova D., Abdullayev S. Integratsiyalashgan darslar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2022. - 172 b.
4. Saidova D. Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya metodikasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2022. - 148 b.
5. Qodirov B. Ona tili darslarida integrativ mashqlardan foydalanish. - Toshkent: Ilm ziyo, 2023. - 136 b.
6. Javohir G'aybullo o'g., Z. The Importance of Effective Use of Exercise Types in Primary Education Mother Tongue Lessons // International Journal of Diversity and Multiculturalism. - 2025. - Vol. 2, № 1. - P. 63-67.
7. Javohir G'aybullo o'g., Z. The Role of Grammar Exercises in Developing Spelling Skills of Primary School Pupils // International Journal of Diversity and Multiculturalism. - 2025. - Vol. 2, № 2. - P. 82-87.

8. Javohir G'aybullo o'g., Z. The Importance of Visual Methods in Increasing Primary School Students' Interest in the Mother Tongue // Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2025. - № 43. - P. 168-171.
9. Зокиров Д. Она тили ва о'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. - 2022.- Т. 1, № 2. - С. 288-291.
10. Zokirov J. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida mashqlarning xususiyatlari // Педагогическая акмеология. Международный научно-методический журнал. - 2022. - Т. 2, № 2.
11. Zokirov J. The Importance of Strengthening Lessons in Students' Mother Tongue and Reading Literacy // Academic Research in Modern Science. - 2022. - Vol. 1, № 9. - P. 344-348.
12. Javohir G'aybullo o'g., Z. O'qish savodxonligini rivojlantirishda mashqlar tahlili va qo'llanishi // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. - 2025. - Т. 1, № 4. - В. 226-230.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.